

UDK: 31:339.5

## JIZZAX VILOYATIDA AHOLI BANDLIGI VA YANGI ISH O‘RINLARINI YARATISH HOLATINI STATISTIK BAHOLASH

Norboyev O‘razali Muratovich,  
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik  
tadqiqotlar instituti mustaqil  
izlanuvchisi (PhD)*  
E-mail: [o.m.norboyev@mail.ru](mailto:o.m.norboyev@mail.ru)

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada Jizzax viloyatida aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish jarayonlari, mehnatga qobiliyatli aholi bandligini ta'minlash muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan. Shuningdek, Jizzax viloyatida iqtisodiyotni makroiqtisodiy barqarorlashtirishda mehnat bozorini takomillashtirish, ishchi kuchiga amalda haqiqiy talab va taklif asosida bandlikni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari to‘g‘risida tadqiqot olib borilgan. Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jahonning global muammolaridan biri bo‘lib kelayotganligini inobatga olib, mamlakatimizda aholi bandligini iqtisodiy-statistik tahlil qilish va bandlik muammosini barataraf etish yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish yildan yilga ortib bormoqda. Shu sababli ushbu mavzuda keng kamrovda ilmiy izlanishlarni statistikaning umumiy-nazariy qoidalari va amaliy jihatlarini o‘zaro uzviylikda tadqiqotlar o‘tkazdik. Ushbu maqolada o‘tkazilgan tadqiqotlarimizdan olgan ayrim ilmiy xulosa va takliflarimizni keltirib o‘tganmiz.

**Kalit so‘zlar:** makroiqtisodiy barqarorlik, statistik ko‘rsatkichlar tizimi, statistik tahlil usullari, YaIM, sanoat, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, trend, davrlarda o‘zgarishlar, statistik hisobotlari, retrospektiv tahlil, tahlil va sintez, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, statistik jadval va grafiklar, statistik guruhlash, , dinamik qatorlar ilmiy abstraksiyalash va iqtisodiy indekslar.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье описаны научные предложения и практические рекомендации по положительному решению проблем обеспечения занятости населения Джизакской области, процессы создания новых рабочих мест, обеспечения занятости трудоспособного населения. Кроме того, проведено исследование социально-

*экономических связей совершенствования рынка труда в условиях макроэкономической стабилизации экономики Джизакской области, обеспечения занятости населения исходя из фактического спроса и предложения рабочей силы. Принимая во внимание, что на сегодняшний день проблема обеспечения занятости населения становится одной из глобальных проблем мира, экономико-статистический анализ занятости населения и разработка путей ликвидации проблемы занятости в нашей стране с каждым годом нарастают. По этой причине мы провели обширные научные исследования по этому вопросу в контексте общих теоретических правил и практических аспектов статистики. В этой статье мы представили некоторые из наших научных выводов и предложений из нашего исследования.*

**Ключевые слова:** *макроэкономическая устойчивость, система статистических показателей, методы статистического анализа, ВВП, отрасли, экономические и социальные процессы, тенденции, изменения периодов, статистические отчеты, ретроспективный анализ, анализ и синтез, экспертная оценка, индукция и дедукция, статистические таблицы и графики, статистическая группировка, научная абстракция динамических рядов и экономические показатели.*

**ABSTRACT.** *This article describes scientific proposals and practical recommendations for a positive solution to the problems of providing employment for the population of the Jizzakh region, the processes of creating new jobs, ensuring employment of the able-bodied population. In addition, a study was made of the socio-economic ties of improving the labor market in the context of macroeconomic stabilization of the economy of the Jizzakh region, ensuring employment of the population based on the actual demand and supply of labor. Taking into account that today the problem of ensuring employment of the population is becoming one of the global problems of the world, the economic and statistical analysis of employment of the population and the development of ways to eliminate the problem of employment in our country are growing every year. For this reason, we have carried out extensive scientific research on this issue in the context of the general theoretical rules and practical aspects of statistics. In this article, we have presented some of our scientific findings and suggestions from our study.*

**Key words:** *macroeconomic sustainability, system of statistical indicators, methods of statistical analysis, GDP, industries, economic and social processes, trends, period changes, statistical reports, retrospective analysis, analysis and synthesis, expert assessment, induction and deduction, statistical tables and graphs, statistical grouping, scientific abstraction of time series and economic indicators.*

### KIRISH

Mamlakatimizda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan islohotlarni izvil amalga oshirish va ularning samaradorligini ta'minlash maqsadida, aholi bandligini barqaror ijobiy holatda saqlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va daromadlar bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish" asosiy vazifalar sifatida belgilangan [1].

Ayniqsa, hozirgi sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini milliy va hudud iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni yuqori bo'lmoqda. Ushbu soha imkoniyat darajasida ichki bozorni to'ldirishga, aholining mahsulot va xizmatlarga bo'lgan moddiy ehtiyojlarini qondirishda hamda eksportni qo'llab-quvvatlashda yetakchi o'rinni egallamoqda.

Respublikamizda aholi bandligini ta'minlash, ishchi kuchidan samarali foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, bu sohada ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60 sonli Farmonida belgilab berilgan: "...mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko'maklashish va o'qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish" [2] kabi vazifalar ham amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida mehnatga qobiliyatli aholi bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etishning muhimligi, eng avvalo, mazkur tushuncha va tavsiflarning nazariy rivojlanishini va konseptual yondashuvlarini ilmiy o'rganishni taqazo etadi.

Har bir mamlakatning mehnat bozoridagi ahvoli, birinchi navbatda, uning iqtisodiyotiga bevosita bog'liqdir. Jahondagi pandemiya oqibatlarini, ayniqsa, mehnat bozorlariga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi ishsizlik darajasining haddan tashqari ortishiga olib keldi.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirish bevosita ish bilan bandlikka bog'liq. Mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelishi birgina iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatib qolmasdan, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ham putur yetkazadi. Bunday nomutanosiblik oqibatida: yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'atlari pasayadi; iqtisodiyot tarkibida ham nomutanosibliklar (tarmoqlar va ishlab chiqarish infratuzilmalari rivojlanishining nomutanosibli) paydo bo'ladi; hududlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi bo'yicha tabaqalanishi kuchayadi; norasmiy sektorlarda to'liq bo'lmagan va samarasiz ish bilan bandlik ko'lami kengayadi; davlat byudjeti va aholini ijtimoiy muhofaza etish tizimida sarf-harajatlar ortadi; mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuchayadi.

Inson rivojlanishi konsepsiyasi nuqtayi nazaridan ish bilan bandlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson mehnat faoliyatini amalga oshirar ekan, munosib turmush kechirish uchun daromad oladi. Bu daromad esa, insonga faqat o'z salohiyatini namoyon etishni ta'minlabgina qolmasdan, inson kapitali – ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga shaxsiy investisiyalar kiritish imkonini ham beradi. Ayni paytda bevosita mehnat faoliyati ish bilan band bo'lgan har bir kishiga o'zi tomonidan jamg'arilgan inson kapitalini ijtimoiy ishlab chiqarishga sarf etish uchun xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishning asosiy omilidir.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Shunga qaramasdan, mintaqa darajalarida mehnat resurslarini foydali mehnatga jalb etish, yangi ish o'rinlarini barpo etish, ishchi kuchidan samarali foydalanish borasida bir qator ilmiy va amaliy muammolar hali ham mavjud va ular dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Jizzax viloyatida foydali mehnatga layoqatli aholini ish bilan band qilish va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda uni tartibga solish muhim masalalardan hisoblanadi. Bu ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi uzviy aloqalar va ziddiyatlarni hamda ular hamkorligining samaradorlik mezonlarini aniqlashga, ishchilarning kasb malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda hamda mehnat resurslarini "ortiqcha" va ish joylari "taqchil" sharoitlarda ishchi kuchiga talab va taklifni makroiqtisodiy tartibga solishda pirovardida iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlarni maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqarishga samarali joriy etishga imkon beradi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida ishchi kuchidan foydalanish holatini statistik tahlil qilish, korxonalarda yangi ish o'rinlarini yaratish holatini statistik kuzatish usullari (anketa orqali kuzatish, monografik kuzatish)ni qo'llash

asosida ishchi kuchidan foydalanish holatini tahlil etish, statistik prognozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining aholini ish bilan band qilishning asosiy omili sifatida statistik baholash kabi masalalarni o'rganish muhim masala hisoblanadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Mazkur tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mazmuni turli-tuman shakllar vositasida ifodalanadi. Tadqiqotchilar iqtisodiy o'sish sur'ati, bandlik va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan holda sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligini rag'batlantirish siyosatida bir qancha modellarini ajratishadi. Jumladan, tadqiqotchilar bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning beshta: amerika modeli (AQSH), skandinaviya modeli (Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya), anglosaksoniya modeli (Buyuk Britaniya, Kanada, Irlandiya), kontinental yoki nemis modeli (Germaniya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Shveytsariya, qisman Fransiya) va yapon modellarini ajratishadi. Ammo ayrim tadqiqotchilar mamlakatlarni boshqacha guruhlashadi, masalan, amerika modelini bo'lak qilib ajratmasdan, uni anglosaksoniya modeliga qo'shib yuborishadi [3].

Xususan, A.Smit "Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqoti" asarida ish bilan bandlik insonlarning faoliyati va intilishlari, ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini uqtiradi [4]. Ye.V.Shuvaevaning fikricha, bandlik mehnat munosabatlari tizimining eng muhim elementi hisoblanadi. Bandlik yollanma ishchi kuchi yoki mehnat bozori paydo bo'lmasdan ancha oldin shakllangan [5].

Mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda, shuningdek bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora tadbirlar olib borilmoqda [6].

Sh.Xolmo'minov fikricha: "Aholi bandligi - ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida aholini ish joyi va bir vaqtning o'zida insonni yashashi uchun zarur mablag' bilan ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari shakllanishini ta'minlaydi" [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A.O'lmasov va A.Vahobovlar ham bandlik borasida ko'plab tadqiqotlar olib borganlar va "Bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor insonlarni ishga joylashib, foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlaridir",- deb ta'riflaganlar [8].

D.Ortiqova mehnat bozorining tashkil etilishi va faoliyat yuritishini bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlikni ta'minlash va uni qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi sifatida baholaydi [9].

T.D. Mamatqulov esa, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi aholi bandligiga katta ta'sir ko'rsatganligini va hozirgacha davom etib kelayotganligini, uning aholining sog'lig'iga tahdiddan tashqari, iqtisodiy va ijtimoiy notinchlik, millionlab odamlarning uzoq muddatli hayoti va farovonligiga tahdid solayotganini ta'kidlaydi. Bu esa hukumatlar oldida kasallikka qarshi kurashish bilan bir qatorda, aholi bandligining barqarorligini ta'minlash vazifasi ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayotganligini aytib o'tgan [10].

Bu, ayniqsa, kasalning tarqalishi kuchli kechgan davlatlar, jumladan, AQSh, Yevropa mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Afrika davlatlari va boshqa davlatlarda aholi bandligi dolzarb yo'nalishga aylanib ulgurdi. Aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashish borasida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida 700 ga yaqin faol dastur va loyihalar bo'yicha ish olib bormoqda. Shuningdek, XMT bandlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun davlatlarning texnik, tashkiliy va institusional imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda [11].

Global pandemiya chekinayotgan davlatlar qatorida O'zbekistonda ham 2020-yilda pandemiya sababli yuzaga kelgan ishsizlik ko'rsatkichi pasayib, mavjud ish o'rinlari tiklanmoqda. Ammo aholi bandligi pandemiyadan oldingi davrdagi holatiga qaytgani yo'q. Buning asosiy sababi tashqi migratsiya bilan bog'liq. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda boshqa davlatlarga borib mehnat qilayotgan mehnat migrantlari soni 2,6 mln. nafardan ortiq bo'lib, mazkur ko'rsatkich jami aholi sonining 7,5 foizini va jami mehnat resurslarining esa 13,6 foizini tashkil etadi. Pandemiya sharoitida ko'plab ish joylarining yopilishi va yashash sharoitining qiyinlashganligi bois aksariyat mehnat migrantlari mamlakatimizga qaytib keldilar [12].

Q.X. Abdurahmonovning fikricha, ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir [13].

Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda esa ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida aks ettiriladi. Masalan, G.S.Vechkanov va G.R.Vechkanova va boshqalar ish bilan bandlikni ishlab chiqarish usuliga ko'ra insonlarning ish joyi bilan ta'minlanishi va xo'jalik faoliyatidagi ishtiroki natijasidagi munosabatlar tizimi deb tavsiflaydi [14]. Mazkur fikrni iqtisodchi olimlardan P.E.Shlender va Yu.P.Kokin ham qo'llab-quvvatlab, ular ish bilan bandlikka insonlarning ish joyi bilan ta'minlanishi va xo'jalik faoliyatidagi ishtirokiga oid iqtisodiy munosabatlar yig'indisi [15] deb ta'rif bergan.

Ish bilan bandlikka mahalliy iqtisodchi olimlardan D.Raximov va boshqalar tomonidan berilgan ta'rifda ushbu munosabatlarning maqsadlilikini, predmetini

aniqlashtiradi. Ularning fikriga ko'ra, bandlik iqtisodiy kategoriya sifatida kishilarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, daromad olishga bo'lgan shaxsiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida mehnatga layoqatli aholini mehnat faoliyati bilan shug'ullanish joylari, ya'ni ish o'rinlari bilan ta'minlanishi yuzasidan bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi [16].

Bizning fikrimizcha, ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga, eng avvalo, mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtdan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, soliqlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada aholi bandligini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimining nazariy asoslarini amaliyot bilan bog'liqlikda xalqaro standartlarga moslagan holda tadqiq etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirishga oid farmon va qarorlarini ijrosining iqtisodiyotga ta'sirini statistik baholashdan iborat.


Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda aholi bandligini ta'minlash modellarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash siyosatini yuritishda samarali metodlar tizimini tanlab olib, ularni milliy iqtisodiyotga tadbiq etish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati mamlakatimizda innovatsion rivojlanish g'oyalarini amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirishga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berish, ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish, raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati tarmoqlarining asosiy mahsulotlariga davlat buyurtmasini belgilash, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag' bilan ta'minlash kiradi. Bu tadbirlar qo'shimcha ish joylarini tashkil qilishda eng kam investisiyani nazarda tutadi va ishchi kuchiga talabni oshirishda muhim o'rin egallaydi. Kichik biznesni rivojlanishi mablag'lar bilan ta'minlashning manbalari bo'lib, mahalliy byudjet, bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va biznes fond mablag'lari hamda xususiy tadbirkorlarning shaxsiy jamg'armalari xizmat qiladi. Bugungi kunda, ayniqsa, mintaqalarda aholi bandligi, ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan ta'minlash masalalarini o'rganishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatimizda doimiy aholi soni 2023-yil 1-yanvar holatiga 36 024,9 ming kishi, tug‘ilganlar 932 192,0 ming kishi, vafot etganlar 172 075,0 ming kishi, aholining tabiiy o‘shishi 760 117,0 ming kishini tashkil qilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda demografik omillarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Aholi ko‘payishi bilan bir yo‘la uning zichligi ham oshmoqda. Mamlakatimizda aholi zichligi 80,2 kv.km/kishini tashkil qilib, dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkich 53,0 kv.km/kishini tashkil qilgan bo‘lib, yurtimiz dunyoda aholi soni bo‘yicha 41-o‘rin, tug‘ilish ko‘rsatkichi bo‘yicha 54-o‘rin, yer maydoni bo‘yicha 56-o‘rin hamda aholi zichligi bo‘yicha 134-o‘rinni egallagan.




**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi sonining o‘zgarishi 1-yanvar holatiga, million kishi, yillar<sup>1</sup>**

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni 1920-yilda 4,4 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning 1 yanvariga kelib, doimiy aholi soni 31,6 million kishiga yoki 8 barobarga ko‘payib 36 024,9 ming kishini tashkil etdi. O‘z navbatida, tabiiy o‘shish koeffitsienti 1920-yilga (11,0 promille) nisbatan 9,9 promillega ko‘paygan hamda 20,9 promilleni tashkil etgan.

Bandlik darajasiga aholi sonining ortishi, xususan, tug‘ilganlar va vafot etganlar soni ta’sir qiladi (2-rasm).

<sup>1</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.






2-rasm. O‘zbekistonda tug‘ilganlar soni, ming kishi<sup>2</sup>

2018-2022-yillarda tug‘ilganlar soni barqaror o‘shish dinamikasiga ega bo‘lgan bo‘lsada, 2018-2020-yillarda ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati sezilarli darajada pasaygan, 2021-yilda nisbatan o‘sgan bo‘lsada, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan o‘shishi sezilarli darajada kamaygan.

Jizzax viloyatida 2023-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 1 475,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 32,2 ming kishiga yoki 102,2% ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 692,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 46,9 %), qishloq aholisi soni 783,3 ming kishi (53,1 %)ni tashkil etdi<sup>3</sup>.

Jizzax viloyati mehnat resurslarini statistik tahlil qilishda viloyat tumanlari va shaharlarining aholi soniga e‘tibor qaratish zarur (3-rasm).



3-rasm. Jizzax viloyatining doimiy aholi sonida hududlarning ulushi, %da<sup>4</sup>

<sup>2</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>3</sup> <https://www.jizzaxstat.uz>

<sup>4</sup> <https://www.jizzaxstat.uz>

Jizzax viloyatining mehnat resurslari tarkibini tahlil qilsak, viloyatda mehnat resurslarining umumiy aholi soniga nisbati so'nggi yillarda sezilarli darajada pasayib kelmoqda. Xususan, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholining doimiy aholi soniga nisbati ham shunday ko'rsatkichga ega bo'lgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Jizzax viloyatining mehnat resurslari tarkibi, ming kishida<sup>5</sup>**

	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil
Mehnat resurslari	652,1	734,7	773,8	782,6
doimiy aholiga nisbatan, %	57,1	58,2	55,5	54,2
shu jumladan:				
mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	649,5	731,5	771,9	780,2
doimiy aholiga nisbatan, %	56,9	57,9	55,3	54,1
mehnat resurslariga nisbatan, %	99,6	99,6	99,7	99,7
mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	2,6	3,2	1,9	2,3
doimiy aholiga nisbatan, %	0,2	0,3	0,2	0,2
mehnat resursiga nisbatan, %	0,4	0,4	0,3	0,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan viloyatda mehnat resurslarining yillar davomida salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Xususan, jami mehnat resurslarida, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni, mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar soni va ularning mehnat resurslaridagi ulushida ham jiddiy pasayish holatlari kuzatilgan.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida tug'ilganlar soni 40 729 kishini tashkil etdi va 2021-yilning shu davriga (41 313 kishi) nisbatan minus 584 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 27,9 promilleni tashkil qildi. Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (30,0 promilledan 30,9 promillegacha), Sharof Rashidov (27,3 promilledan 28,3 promillegacha), Mirzacho'l (21,6 promilledan 22,0 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda o'lganlar soni 6 784 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (5 930 kishi) nisbatan 854 kishiga ko'paydi, mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qildi (2021-yil yanvar-dekabrda 4,2 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyentining sezilarli o'sishi Baxmal (4,6 dan 4,9 promillegacha), G'allaorol (4,7 dan 5,3 promillegacha), Zomin (4,6 dan 5,3 promillegacha) hissasiga to'g'ri keladi. O'lim darajasining eng past ko'rsatkichi Sharof Rashidov (3,6 promille), Forish (4,1 promille) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

<sup>5</sup> [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz) rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Viloyat mehnat resurslariga statistik baho berishda ularning iqtisodiy faol va nafaol aholi qatlami bo'yicha taqsimlanishini inobatga olgan holda statistik tahlil qilindi (2-jadval).

**2-jadval**

**Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha taqsimlanishi<sup>6</sup>**

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil
Jami mehnat resurslari	652,1	734,7	773,8	782,6
shahar	323,4	369,3	383,8	382,6
jamiga nisbatan foizda	49,6	50,3	49,6	48,9
qishloq	328,7	365,4	390,0	400,0
jamiga nisbatan foizda	50,4	49,7	50,4	51,1
iqtisodiy faol aholi	404,6	465,4	600,1	612,6
shahar	202,1	252,7	295,1	289,1
jamiga nisbatan foizda	50,0	54,3	49,2	47,2
qishloq	202,5	212,7	305,0	323,5
jamiga nisbatan foizda	50,0	45,7	50,8	52,8
iqtisodiy nafaol aholi	247,5	269,3	173,7	169,9
shahar	121,3	116,6	88,7	93,3
jamiga nisbatan foizda	49,0	43,3	51,1	54,9
qishloq	126,2	152,7	85,0	76,6
jamiga nisbatan foizda	51,0	56,7	48,9	45,1

Yuqoridagi jadvaldan 2020-yilga nisbatan 2021-yilda shahardagi mehnat resurslari (mos ravishda 383,8 dan 382,6 ga) va ularning jami mehnat resurslaridagi ulushi (49,6% dan 48,9% ga) ham jiddiy pasayganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ammo, iqtisodiy faol aholi soni qishloq aholisi hisobiga ijobiy o'sganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunday o'zgarishlar migratsion o'zgarishlar hisobiga to'g'ri kelgan. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 631 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 417 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 786 kishi tashkil etgan, 2021 yilning mos davrida minus 2 491 kishi bo'lgan. Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 577 kishi), G'allaorol (minus 406 kishi), Do'stlik (minus 263 kishi) va Forish (minus 389 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosi Sharof Rashidov tumani (442 kishi) kuzatildi. Bu hududlarda mehnat resurslarining chiqib ketish darajasi juda yuqori ekanligini va bu ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmasa yanada ortib borishi mumkinligini anglatadi.

Mehnat resurslariga salbit ta'sir etuvchi ko'rsatkichlardan yana biri bu o'lim koeffitsiyenti hisoblanadi. Aholi orasida bevaqt o'lim va kasalliklardan vafot etish darajasining ortib ketishi ham aholining tabiiy o'sishiga salbiy ta'sir

<sup>6</sup> Jizzax viloyatining demografik holati. 2022-yil yanvar-dekabr. <https://www.jizzaxstat.uz/uz/default/press-relizlar/6951-2022-yil>

ko'rsatish bilan birga, aholining migratsion chiqib ketish oqimining ortishiga olib keladi. Shu sababli, aholini turli kasalliklardan saqlash va ularni talab darajasida tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash iqtisodiy jihatda o'ta dolzarb masala hisoblanadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholi bandlik darajasi makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida mamlakat iqtisodiyotiga baho berishda foydalanilsa, ijtimoiy jihatdan esa bu aholining farovonlik darajasini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababli, aholi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda aholini to'liq qamrab olish barcha hududiy va ma'muriy birliklar to'g'risida to'liq, deyarli xatosiz ma'lumot olish zarur hisoblanadi. Shu sababli, aholini ro'yhatga olish juda katta ahamiyatga ega jarayondir. Odatda, har o'n yilda bir marta o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish mamlakatimizda, 1989-yilgi Butunittifoq aholini ro'yxatga olish tadbirlaridan so'ng, 2023-yilga qadar aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Aholi soni bilan bog'liq ma'lumotlarni shakllantirishda aholini ro'yhatga olish jarayonlari ko'p jihatdan muhimligini inoabtga olib, ushbu statistik ko'rsatkichlarni aniqlilik darajasini oshirish uchun ma'lumotlar bazasini raqamlashtirilgan tizimlar yordamida to'plash zarur deb hisoblaymiz.

Yuqorida olingan natijalardan xulosa qilganda, quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish orqali mamlakatda mehnat resurslarining ijobiy o'sishi bilan birga bandlik muammolarini bartaraf etish mumkin bo'ladi:

1. Mehnat bozorini tartibga solish;
2. Aholining iqtisodiy faolligini doimiy ravishda oshirib borish;
3. Mehnat resurslaridan umumiy foydalanish;
4. Hududlardagi ishsizlik darajasini yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yorlardan oshib ketishiga yo'l qo'yimaslik;
5. Turli mulkchilik shakllari va tarmoqlar bo'yicha ish joylari yaratish sur'atlari va xajmlarini ta'minlash;
6. Ish bilan bandlar va ishsizlarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash.

Shuningdek, mamlakatda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining o'sishi ijtimoiy tizimlar rivojlanganligi darajasini belgilovchi asosiy mezon ekanligidan kelib chiqib, umr ko'rish davomiyligi uzayishiga ta'sir qiluvchi aholi turmush darajasining o'sishi, ilm-fanning, ayniqsa tibbiyot sohasidagi taraqqiyoti, aholining gigiena madaniyatining, umuman ta'lim darajasining barqaror rivojlanishini ta'minlash zarur deb hisoblaymiz. Aholini tabiiy o'sishida tug'ilishni uzoq muddatli istiqbolda ham demografik takror barpo qilishning oddiy rejimini ta'minlash darajasida saqlash, aholi sog'lig'ini saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, aholiga yuqori sifatli, zamonaviy talab va standartlarga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash, aholining

ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish hamda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatishni rivojlantirish, to'g'ri ovqatlanish va gigiena, sog'lom homiladorlik va bola parvarishi, reproduktiv salomatlik, sog'lom turmush tarzi masalalarida aholining tibbiy savodxonligini oshirish, ishlab chiqarishda mehnat qilishning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash, baxtsiz hodisalar, zaharlanishlar va jarohatlarning oldini olish kabi chora tadbirlarning ta'sirini oshirgan holda o'tkazib borish zarur. Shular respublikamizda demografik siyosatning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish aholini takror barpo qiluvchi demografik salohiyatni shakllantirishga va undan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O. Axunova, O. Teshabaeva, A.Yulchiev. Analysis of the status, movement and level of funding of fund funds in foreign enterprises. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. –2021. –P 450-460.
4. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Наука. – 1993. – С. 570.
5. Шуваева Е.В. Занятость как важнейший элемент трудовых отношений//Актуальные вопросы экономических наук: Материалы международ. науч. конф. Уфа.: Лето. – 2011. – С 36-37.
6. М.К. Abdullayev, D.B. Begalova. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –№2. –2021. – В. 114-120.
7. Sh.R. Xolmo'minov. Mehnat bozori rivojlanishining tahlili. Monografiya. T.: Fan va texnologiya. – 2016. –137 b.
8. A. O'lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Iqtisodiyot-moliya. – 2014. – 424 b.
9. Артикова Д.А. Формирование занятости населения в Республики Узбекистан. *Учебник*. - Т.: Фан. – 2005. – С. 55-59.

10. T.D. Mamatqulov Aholini ish bilan ta'minlash: muammolar, tahlillar va yechimlar//“*Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar*” ilmiy-elektron jurnali. №4. – 2021.

11. <https://www.ilo.org/index.htm>

12. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayt ma’lumotlari. [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz).

13. Q. Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti.Darslik. - T.: Mehnat. –2009. –223 b.

14. Вечканов Г.С, Вечканова Г.Р. Современная экономическая энциклопедия. – СПб.:Издательство “Лань”. – 2002. – С. 880.

15. Кокин Ю.П., Шлендер П.Э. Экономика труда. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. / под ред. проф. Ю.П.Кокина, проф. П.Э.Шлендера. – М.: Магистр. – 2010. – С.101.

16. D.Rahimova, X.Abulqosimov, O.Abdurahmonov, K.Kattaev, R. Ro‘zmetov. Milliy mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlashni boshqarishni takomillashtirish yo‘nalishlari. -T.: Fan va texnologiya – 2009. – B. 23.